

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROYITIDA BO'LAJAK QORAQALPOQ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Orazbaeva Gozzal Usnaddin qizi

Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15628653>

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha soxalariga, shu jumladan ta'lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda. Shu jumladan, pedagogika va uning atrofidagi ta'limga oid ko'plap terminlar raqamlashtirilib, ularni qayta o'rganish va mohiyatini tushintirishning ilmiy-amaliy ahamiyati ortib bormoqda.

Har bir soxada "raqamlashtirish" orqali yuqori natijalarga ega bo'lish, dunyo bozorida raqobatbardosh bo'lishga erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan. "Raqamlashtirish" - vikipedia lug'atida XX asrning 90-yillarida "raqamli qurilmalar" yordamida ma'lumotlarni yozish va uzatishning raqamli aloqa usuliga o'tish sifatida talqin etiladi. Ta'lim modernizatsiyasi sharoyitida ham texnik vositalarni tavsiflovchi ba'zi tushunchalar o'zgardir, masalan, "axborot-kommunikatsion texnologiyalar" tushunchasi "raqamli texnologiyalar"ga almashdi. Raqamli texnologiyalar ta'limning yangicha bosqichga chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bu bo'lsa o'qituvchidan nafaqat kasbiy tayyorgarlikni, balki raqamli savodxonlik, ijodkorlik va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash kabi ahamiyatli ko'nikmalarga ega bo'lishni ham talab qiladi.

Raqamli pedagogika – an'anviy ta'limga nisbatan yangi, zamonaviy texnologik yondashuv bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqot va ta'sir ko'proq raqamli muhit orqali amalga oshiriladi. Bunda elektron resurslar, multimedia vositalari, masofaviy ta'lim platformalari muhim o'rin tutadi. Shuqurroq tushuntiradigan bo'lsak, raqamli vositalar orqali ta'limni samarali tashkil etish, o'quvchi va o'qituvchi orasida faol muloqotni ta'minlash, o'qitish jarayonini interaktiv, ochiq va ijodiy tusga aylantiruvchi tizim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmonida maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.[1] Yani o'qituvchilarni zamonaviy kompetentsiyalar bilan qurollantirish, raqamli ta'limda kommunikatsiya, axborot oqimini boshqarish, onlayn resurslardan foydalanish kabi imkoniyatlarni nazarda tutadi. Zamonaviy mutaxassisning raqamli vositalardan foydalana olmasligi ta'limni modernizatsiya qilishda jiddiy to'siq bo'lishi mumkin.

Raqamli pedagogika sharoyitida o'qituvchilar faoliyatida muhim bo'lgan shaxsiy va kasbiy qobiliyatlari uygunligini aks ettiruvchi kommunikativlik kompetentligini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Gumanitar fanlar tarmog'ida bo'lishiga qaramasdan, bo'lajak qoraqalpoq tilini o'qituvchi pedagoglar ham zamonaviy ta'limga, zamonaviy o'quvchilarga mos tarzda fanga oid bilimlarni o'rgatish, ular bilan muloqot qilish ko'nikmalari (kommunikativ kompetentlik)ni raqamli ta'lim sharoyitiga mos tarzda rivojlantirib borishi kerak.

Kommunikativlik kompetentlik - bu o'qituvchining o'z fikrini ravon, tushunarli ifoda etishi, madaniy va ijtimoiy muhitni hisobga olgan holda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan muloqot qila olish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatidir.[3] Bu atama ilmiy adabiyotga D.Xayms tomonidan kiritilgan. Bo'lajak qoraqalpoq tili o'qituvchisi til kompetentsiyasi (fonetika, leksika, morfologiya, sintaksisni bilishi), pragmatik kompetentsiya (kontekstga mos muloqot ilb borishi), sotsiolingvistik kompetentsiya (turli madaniyat, ijtimoiy guruh va vaziyatga mos til ishlatishi), texnologik kompetentsiya (zamonaviy AKT vositalardan foydalanib faoliyat yuritishi)

kabi jihatlar bo'yicha hartaraflama tayyor bo'lishi kerek, ayniqsa dars jarayonida muloqotni turli shakllarda (yuzma-yuz, masofaviy, multimedia orqali) olib bora olishi lozim.

Zamonaviy raqamli vositalar va platformalar o'qituvchilarning muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bunda o'qituvchilar Zoom, Google Meet, Moodle, Google Classroom, Youtube, Podcasts platformalarini mukammal foydalana olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak qoraqalpoq tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday o'qituvchilar zamon talablariga javob beruvchi, kommunikatsiya vositalarini mukammal egallagan, raqamli ta'lim muhitida zukko, kasbiga sodiq pedagoglar bo'lib yetishadi.

Bugungi globallashuv davrida bo'lajak qoraqalpoq tili o'qituvchilarning egallashi kerak bo'lgan kompetentligi quyidagilarda aks etadi: insonparvarlik, kommunikativlik, ishchanlik, o'z ishiga ijodiy yondashish, pedagogik texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish, nutq texnikasi va eng asosiylaridan biri yuqori darajadagi raqamli texnologiyalardan foydalana olishida o'z aksini ko'rsatadi. Raqamli sharoyitta kommunikativlik kompetentlikni rivojlantirishda raqamli savodxonlik va raqamli tajribalar muhim o'rin tutadi. Raqamli savodxonlik va tajribalar – raqamli texnologiyalarni natijali, xavfsiz va maqsadga muvofiq foydalana olish qobiliyatidir. Bu faqat kompyuter va internet bilan ishlash ko'nikmalaridan iborat emas, balki, texnologiyalarni tushinish va foydalana olish, axborotni analiz qilish va tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligini ta'minlash, raqamli muloqot qoidalarini bilishni o'z ishiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, raqamli pedagogika sharoyitida bo'lajak qoraqalpoq tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun pedagogika oliygohlarida o'quv dasturlariga kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlarni ko'proq kiritish, maxsus elektron resurslar (qoraqalpoq tilida interaktiv lug'atlar, video darslar) ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha master-klaslar tashkil etish ham ular orqali kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmoni. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". 2022-yil 28-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish to'g'risida"gi farmoni.
3. Xusainova D. Pedagogning kommunikativ kompetentlik xususiyati, "Ilm-fan va ta'lim" jurnali, №8(23) 52-54.
4. Muslimov N.A. va b. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari, -Toshkent, 2015.